


## AXBOROT-RESURS MARKAZI FONDALARINI SHAKLLANTIRISH



*Akramova Farog‘at Alisherovna,  
Farg‘ona transport va servis texnikumi,  
“Ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va gumanitar”  
fanlar kafedrasi maxsus fan o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada axborot-resurs mazrkazlarining fondalarini shakllantirish bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan ishlar haqida fikr bildirilgan. Fondlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, keng ommani qiziqtirish va jalb etish ham bevosita mazkur sohadagi ishlarning to‘g‘ri shakllantirilganlig bilan bog‘liq. Bu boradagi ishlarga hukumat tomonidan alohida e’tibor qaratilishning o‘zi ham masalaning dolzarb ekanligini namoyon etadi.

**Kalit so‘zlar:** kutubxona, axborot-resurs markazi, fond, kitobxon, markaziy fondni shakllantirish, elektron manbalar.

### ФОРМИРОВАНИЕ ФОНДОВ ИНФОРМАЦИОННО-РЕСУРСНОГО ЦЕНТРА

Акрамова Faрагат Алишеровна,  
Ферганский техникум транспорта и сервиса,  
“Социально-экономические, природные и гуманитарные”  
преподаватель специального предмета кафедры естественных наук

**Аннотация:** в данной статье дается обзор работы по формированию фондов информационно-ресурсных центров. Немаловажное значение имеет формирование фондов, интерес и привлечение широких масс населения также напрямую связаны с правильным формированием работы в данной сфере. Само по себе привлечение особого внимания со стороны правительства к работе в этом направлении показывает, что проблема актуальна.

**Ключевые слова:** библиотека, информационно-ресурсный центр, фонд, читатель, формирование центрального фонда, электронные ресурсы.

Insoniyat yaratgan yozuvlar, kitoblar bo‘lmaqanda odamzod o‘zining o‘tmishini, bilim, donolik va hikmatlarini ham bilmagan, ilm-fanni ham taraqqiy ettira olmagan bo‘lardi. Jami ixtiolar, kashflyotlar, taraqqiyot darajasi ham kitoblar tufaylidir. “Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir”, degan edi nemis yozuvchisi S.Sveyg. Kitoblar barcha zamонлар учун eng zarur narsa, qalblar malhami, bilimlar xazinasi, donishmandlik chashmasi bo‘lgan va bo‘lib qolaveradi. Shu davrda sohaga oid birinchi marta qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-



kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2006-yil 20-iyunda qabul qilingan Prezidentimizning “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashi tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2011-yil 23-fevraldagi “2011—2015-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatini

yanada sifatli takomillashtirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2012-yil 20-martda qabul qilgan “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs markazi ishini takomillashtirish haqida”gi Qarorning o‘ziyoq bu davrning o‘ziga xos xususiyatlarini va ahamiyatini ko‘rsatadi.

ARM axborot-kutubxona muassasalari tizimidagi o‘rnii kitob jamg‘armasining ko‘p-ozligi yoki foydalanuvchi kitobxonlaming soni bilangina emas, balki, asosan, bu muassasalarning milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish va xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo‘lishini ta’minlash, ma’naviy boy va uyg‘un kamol topgan shaxsnинг ijodiy o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratish hamda o‘z hududida yashovchi aholiga kitob xizmati ko‘rsatishdagi tashkilotchilik roli bilan belgilanadi.



Hozirgi kunda zamonaviy talablar hisobga olingan holda kutubxona tarmog’ini tashkil qilishni takomillashtirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intelektual ehtiyojlarini qondirish madaniy, ma’naviy axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo‘naltirilgan prinsipial yangi axborot markazlarini barpo etish, shuningdek aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan taminlash kun tartibidagi masalaga aylanmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, tahlil qilish va sohanri rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish bu sohaning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Axborot-resurs fondini shakllantirishdan maqsad uni axborot-resursning vazifalariga moslashtirish, axborot-resurslarning talab va ehtiyojlarini to‘liq qondirishdan iborat. O‘quvchining qiziqishi, talabi ijtimoy-demografik (yoshi, jinsi, ma’lumoti kabi) va shaxsiy o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Shuning uchun

kitobxonning qiziqishi uning kitobga bo‘lgan talabida aks etadi. Axborot-resurslarning fondi tashrif buyuruvchi kitobxonlar qiziqishi va talablariga iloji boricha javob bermog‘i kerak. Fondni butlashda o‘quvchining talabiga befarq qarash bu axborot-resursning ta’sir doirasining pasayishiga va aksincha, faqat kitobxonlar talabi asosida butlash fondning sifati va mazmuniga salbiy ta’sir etishi, madaniy rivojlanishiga to‘sinq bo‘lishi mumkin. Axborot-resurs fondining axborot-resurs markazi xodimlari bilan qarama-qarshiligi shundaki, axborot-resurs fondini shakllantirishni tashkil qilish uchun xodimlar doimo o‘z malakasini oshirib borishi lozim. Axborot-resurs mazrkazi xodimi o‘z fondini doim mukammal to‘ldirib borishi va ularni yaxshi saqlash uchun binoni kengaytirishi, xonalarning yetarli bo‘lishiga erishishi lozim. Kitobxonlarning to‘lib ketishi, joyning yetmasligi, avtomatlashtirishga moslashmaganligi, bo‘limning har xil joyda joylashuvi va hokazolar shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborot-resurs fondini kitobxon talabiga moslab shakllantirishning asosiy usullaridan biri – fondni o‘zining ixtisosiga mos kitoblarni olish, fondning to‘liqligini saqlab qolishdir. Fondni hisobga olish va joylashtirishni, ularning saqlanishini, hujjatlar nusxasini olish va CD/DVD disklariga ko‘chirish, restavratsiya qilishni taminlaydi. Kitobxonlarga tezkorlik bilan axborot qidirish imkonini beradigan yig‘ma elektron katalogni tuzishda qatnashadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-1991930?ONDATE=23.04.2018%2000>
2. Berdiyeva Z. Kutubxonashunoslik. – Toshkent: Ilm ziyo, – 2013.